

KORPUS TAHLILI ASOSIDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI HARAKAT FE‘LLARINING GRAMMATIK VALENTLIK TAHLILI (KELMOQ VA COME FE‘LLARI MISOLIDA)

Babajanova Lobar Jamoladdin qizi,

Tayanch doktorant (PhD)

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilidagi *kelmoq* va ingliz tilidagi *to come* fe‘llarining grammatik valentlik xususiyatlari korpus asosida qiyosiy tahlil qilindi. Britaniya Milliy Korpusi (BNC) va Leipzig multilingual korpusi materiallariga asoslangan holda, ushbu fe‘llarning real nutqdagi qo‘llanilishi empirik jihatdan o‘rganildi. Tahlil natijalari har ikkala fe‘lning monovalent xususiyatga ega ekanligini, ya‘ni faqat bitta majburiy argument — ega (Agent/Mover) bilan bog‘lanib kelishini ko‘rsatdi. Shuningdek, joy, vaqt va usul kabi komponentlar ixtiyoriy bo‘laklar sifatida qatnashishi, lekin valentlik tarkibiga kirmasligi, gapning mazmuniga katta ta‘sir ko‘rsatmasligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotda fe‘llarning orttirma nisbat shakllari orqali valentlik darajasining oshish jarayoni ham tahlil qilindi. Olingan natijalar grammatik valentlik nazariyasining asosiy tamoyillari real til materiallari asosida tasdiqlanishini ko‘rsatdi hamda tilshunoslik, til o‘qitish va korpus lingvistikasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini yoritishga qaratildi.

Kalit so‘zlar: *Grammatik valentlik, monovalent fe‘llar, bivalent fe‘llar, argument strukturasi, harakat fe‘llari, semantik rol.*

Annotation: In this paper, the grammatical valency properties of the Uzbek verb "kelmoq" and its equivalent in the English language, "to come," will be compared using the corpus-driven approach. Empirical data is collected using the British National Corpus and the Leipzig Multilingual Corpus which enables the investigation of the verbs' behavior in actual language usage. The findings indicate that both verbs display monovalent valency properties which means the verbs

require only one argument which is the subject (Agent/Mover). During the investigation, it can be observed that the locative, temporal, and manner adverbs are not included in the argument structure and, therefore, do not affect the propositional content of the sentence. Moreover, the investigation into the expansion mechanisms using causative constructions is included which shows the expansion of the argument structure. It is evident that the argument structure is complex during derivational processes. This investigation is important because it substantiates the main assumptions of the grammatical valency theory. Furthermore, it is clear that the investigation is relevant to the current linguistic landscape, foreign language pedagogy, and corpus linguistics.

Key words: *Grammatical valency, monovalent verbs, bivalent verbs, argument structure, motion verbs, semantic roles.*

Zamonaviy tilshunoslikda grammatik valentlik tushunchasi gap tuzilmasini tahlil qilishda hamda fe'l va uning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda muhim o'rin egallaydi. Valentlik nazariyasi ilk bor L. Tesniere tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u fe'lning gapda nechta va qanday turdagi ishtirokchilarni (argumentlarni) talab qilishini tizimli ravishda izohlash imkonini beradi [10:238-250]. Ushbu nazariya nafaqat nazariy tilshunoslik doirasida, balki til o'qitish, tarjima nazariyasi va kompyuter lingvistikasi kabi amaliy sohalarda ham keng qo'llaniladi [1:45-50]; 3: 65-70].

Ayniqsa, harakat fe'llari (motion verbs) valentlik xususiyatlarini o'rganishda muhim obyekt hisoblanadi. Ular real harakat, yo'nalish va makon bilan bog'liq semantik munosabatlarni ifodalab kelgani tufayli o'zbek tilidagi *kelmoq* va ingliz tilidagi *to come* fe'llari qiyosiy tadqiqot uchun eng optimal variant hisoblanadi. Ushbu fe'llar semantik jihatdan yaqin bo'lishiga qaramay, turli tillarga mansubligi sababli ularning sintaktik ifodalanishida ayrim farqlar kuzatilishi aniqlandi [9: 3-15].

Ushbu ishning ilmiy ahamiyati shundaki, unda grammatik valentlik nazariyasining asosiy tamoyillari real til materiallari asosida asoslab beriladi hamda o'zbek va ingliz tillari misolida gapning argument strukturalari va fe'l valentligi o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik va farqli jihatlar aniqlanadi [7]. Mazkur tadqiqot natijalaridan olingan xulosalar tilshunoslik, xorijiy til o'qitish va korpus lingvistikasi sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

1-jadval. O'zbek tilidagi “kelmoq” fe'lining grammatik valentlik qonuniyatlariga ko'ra tasniflanishi

№	Tavsif
Valentlik turi	bir valentli (monovalent)
Argumentlar soni	1 (faqat ega)
Majburiy argumentlar	harakat bajaruvchisi (agent)
Sintaktik struktura	harakat bajaruvchisi (agent) + kelmoq
Semantik tur	harakat fe'li (motion verb)
Grammatik xususiyati	o'timsiz fe'l (intransitive), kimdir o'zi keladi, to'ldiruvchi talab qilmaydi
Agentning semantik roli	harakat bajaruvchisi (ega vazifasida)
Kelishik belgilari	harakat bajaruvchisi (agent) - bosh kelishik
Misollar	Bola keldi. Mehmon keladi. U kech keldi.
Ixtiyoriy elementlar	hol: Bola uyga keldi (o'rin holi). U erta keldi (payt holi). Tezda keldi (payt holi).
Majhul nisbat shakli (passive form)	o'timsiz fe'l bo'lganligi sababli mavjud emas
Orttirma nisbat shakli (causative form)	keltirmoq (valentlik oshadi)
Semantik maydon	harakat, ko'chish, yetib kelishni bildiradi
Semantik pozitsiyasi, roli	harakat bajaruvchisi (agent), harakatlanuvchi (mover)

Endi esa xuddi shu fe'lni ingliz tilidagi ekvivalenti hisoblanmish, “to come” fe'lini grammatik valentligini aniqlaymiz:

2-jadval. To come” fe'lining grammatik valentlik qonuniyatlariga ko'ra tasniflanishi

	Tavsif
--	--------

Valentlik turi	monovalent (bir valentli)
Argumentlar soni	1 (faqat subject(ega))
Majburiy argumentlar	Agent (harakat bajaruvchisi)
Sintaktik struktura	Subject(ega) + come
Semantik tur	Motion verb (harakat fe'li)
Grammatik xarakter	Intransitive verb (o'timsiz fe'l), to'ldiruvchi talab qilmaydi
Agentning semantik roli	Harakat bajaruvchisi (subject (ega) vazifasida)
Sintaktik belgilar	Subject(ega) - nominative case (bosh kelishikda)
Misollar	The boy came. The guest is coming. He came late.
Ixtiyoriy elementlar	Adverbial(hol): He came home (locative adverbial, o'rin holi). She came early (temporal adverbial, payt holi). They came quickly (manner adverbial, ravish holi).
Passive form (majhul nisbat shakli)	Mavjud emas (no passive form)
Causative form (orttirma nisbat shakli)	Come (kelmoq) bring (keltirmoq, olib kelmoq) (valentlik oshadi: harakatni boshqa shaxs qiladi, masalan, she brought him)
Semantik maydon	Movement, arrival, approach (harakat, yetib borishni anglatadi)
Semantik pozitsiyasi, roli	Agent/Mover (harakat bajaruvchisi, harakatlanuvchi)

Demak, “*kelmoq*” va “*come*” fe'llari grammatik valentlik jihatidan to'liq mos keladi - ikkala fe'l ham monovalent bo'lib, faqat bitta majburiy argumentni, egani (Agent/Subject) talab qiladi. Farqlar asosan tillardagi grammatik tizimlarning o'ziga xosligidan kelib chiqadi: o'zbek tilida gaplar, asosan, kelishik qo'shimchalari yordamida, ingliz tilida esa predloglar yordamida o'zaro bog'lanadi, hamda o'zbek tilida ega+ ikkinchi darajali bo'laklar+kesim so'z tartibi saqlansa, ingliz tilida ega+kesim+ikkinchi darajali bo'laklar strukturasi saqlanadi [1]; [2]. Shuningdek, ushbu fe'llarni orttirma nisbat shakliga keltiradigan bo'lsak, kelmoq harakat fe'li keltirmoq shaklida orttirma nisbat qo'shimchasi *-tir* bilan yasalsa, ingliz tilida bu fe'l o'timlidan o'timsizga aylanib, *come-bring* shaklida valentlik darajasi oshib,

umuman boshqa shaklga o'zgaradi, ya'ni bu fe'l orttirma nisbatga o'tganda bivalent ham trivalent ham bo'lishi mumkin. Bu jarayonda yangi semantik rol paydo bo'lganligi hamda gapning argument strukturasi kengayganligi sababli “kelmoq/come” monovalent, “keltirmoq/bring” bivalent yoki trivalent shaklga o'tishi natijasida fe'l valentligining oshishi kuzatiladi.

BNC ma'lumotlariga ko'ra *to come* fe'li korpusda 66068 ta o'rinda uchraydi, bu esa bu fe'lining naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi:

British National Corpus (BNC)

AI

SEARCH

FREQUENCY

CHOOSE TRANSLATION

ERROR

ON CLICK:

CONTEXT

TRANSLATE (??)

ENTIRE PAGE

GOOGLE

IMAGE

PRON/VIDEO

BOOK

THESAURUS

(HELP)

AI:


SECTIONS

HELP			ALL	SPOKEN	FICTION	MAGAZINE	NEWSPAPER	NON-ACAD	ACADEMIC	MISC
1		COME	66068	17970	19392	3745	5387	6072	4126	9376

0.188 seconds

1-rasm. BNC'da *to come* fe'lining uchrash chastotasi

Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi *to come* fe'lining grammatik valentlik xususiyatlari Britaniya Milliy Korpusi (BNC) materiallari asosida tahlil qilindi. Korpusdan ushbu fe'lining barcha shakllarini qamrab oluvchi lemma bo'yicha qidiruv amalga oshirildi. BNC ma'lumotlariga ko'ra, ushbu fe'l korpusda yuqori chastotali birliklardan biri bo'lib, jami 66 068 marta uchraydi, bu esa uning ingliz tilidagi yuqori darajadagi funksional ahamiyatini ko'rsatadi.



2-rasm. BNC'da qidiruv natijasi

Valentlik tahlili uchun BNC dan tasodifiy tanlangan gaplar qo'lda annotatsiya qilindi. Tahlil jarayonida *to come* fe'lining ixtiyoriy 10 ta har xil o'rinda qo'llangan joylari olindi, ya'ni faqat harakat (motion verb) ma'nosida qo'llangan holatlari tanlab olindi. Idiomatik va abstrakt ma'noda qo'llangan holatlar (*come to terms with*, *come to conclusions*, *come from an idea* va boshqalar) tadqiqotdan chiqarib tashlandi, chunki ular fe'ning real harakat valentligini aks ettirmaydi.

CLICK FOR MORE CONTEXT				SAVE	TRANSLATE	ANALYZE	HELP	AI: patterns
1	HHX	W_hansard	Q	different from those to be found in urban areas. Perhaps for many people who come to live in the town that is part of its attraction. My motion centres				
2	HHX	W_hansard	Q	welcome news. Undoubtedly, the problems of long-term unemployment are the most difficult to come to terms with and to solve. That is probably enough history and geogra				
3	HHX	W_hansard	Q	consider the national picture as well. Mr. Bowis I agree that the lead should come from the top. I hope that the people who have awarded themselves excessive pay				
4	HHX	W_hansard	Q	on to other types of training and education. Often, people who hesitate to come into the world of education -- perhaps because English is not their first language,				
5	HHX	W_hansard	Q	important in their households or because they missed an opportunity earlier in life -- can come into adult education, not necessarily taking vocational courses in the first insta				
6	HHX	W_hansard	Q	my constituency of Brecon and Radnor, where my father came from and where I come from, unemployment has doubled in the past 15 months. Only last week,				
7	HHX	W_hansard	Q	it would be churlish of me to say that the Government are not trying to come to terms with the unemployment problem. From the tenor of speeches that have already				
8	HHX	W_hansard	Q	and the defence policy of every party is now under review. One need not come to the same conclusions now as one did two years ago. Tax reforms are				
9	HHX	W_hansard	Q	us in a car -- I end up discussing with the driver how he has come to Britain in the fairly recent past and now has a job driving round London				
10	HHX	W_hansard	Q	people from Africa, Europe and all over the world. Every day such people come to Britain and are still able to find work because they are determined to find				


3-rasm. BNC'da to come fe'lining tahlil natijasi

Har bir tanlangan gapda fe'lining majburiy argumentlari aniqlanib, ixtiyoriy komponentlar (o'rin-joy, vaqt, usul holi) valentlik hisobiga kiritilmadi. Qo'lda belgilash natijalari shuni ko'rsatdiki, *to come* fe'li barcha kuzatilgan holatlarda faqat bitta majburiy argument — Ega (subject/agent/mover) bilan namoyon bo'ldi.

Gap tuzilishi	Misol	Belgilash
Faqat ega	The boy came.	S
Ega + o'rin-joy holi	People come to Britain.	S + directional/goal adv
Ega + o'rin holi	My father comes from Wales.	S + source adv
Ega+ payt holi	He came late.	S + temporal adv
Ega + payt holi	They came quickly.	S + manner adv
Ega + to'ldiruvchi	—	0%

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, *to come* fe'li barcha kuzatilgan holatlarda faqat bitta majburiy argument — Subject (Agent/Mover) bilan izohlanadi. Joy, vaqt, manba va usul kabi komponentlar gap tarkibida muntazam uchrasa-da, ular fe'l tomonidan majburiy tarzda talab etilmaydi va valentlik hisobiga kiritilmadi. Korpus materiallarida *to come* fe'lining to'ldiruvchi bilan qo'llangan holatlari aniqlanmadi, bu esa uning, asosan, monovalent fe'l ekanligini hamda ushbu fe'ning sintaktik xususiyatlari tasodifiy emas, balki uning leksik-semantik tabiatiga bog'liq ekanligini empirik ravishda tasdiqlaydi.

Endi esa o'zbek tilida mavjud *kelmoq* harakat fe'lini Leipzig multilingval korpusi ma'lumotlari asosida xuddi *to come* fe'ldek annotatsiya qilib, tahrirlab chiqamiz. Korpus ma'lumotlariga ko'ra, *kel-* fe'lining lemma shaklidan 663 119 ta gaplardan real misollar olindi. Ushbu korpus materiallari asosida olib borilgan annotatsiya natijalari *kel-* fe'lining grammatik valentlik xususiyatlarini empirik jihatdan aniqlash imkonini berdi. Jadvalda keltirilgan nutq misollarining barchasida *kel-* fe'li faqat bitta majburiy argument — harakat bajaruvchini bildiruvchi ega (Agent/Mover) bilan kelgani kuzatildi. Bu holat fe'ning asosan monovalent xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.



Tahlil jarayonida *kel-* fe'lining to'ldiruvchi bilan qo'llangan holatlari aniqlanmadi. Gap tarkibida joy, vaqt yoki usulni bildiruvchi birliklar muntazam uchrasa-da, ular fe'l tomonidan majburiy tarzda talab etilmaydi va shuning uchun valentlik hisobiga kiritilmadi. Ushbu komponentlar *kel-* fe'lining sintaktik tuzilmasida ixtiyoriy bo'laklar sifatida ishtirok etadi.

Shuningdek, korpus materiallari *kel-* fe'lining frazeologik yoki metaforik qo'llanishlari (yordamga kelmoq, fikrga kelmoq, qayta yuzaga kelmoq, hushiga kelmoq, esiga kelmoq va boshqalar) mavjudligini ko'rsatdi. Biroq bunday holatlar semantik jihatdan real fazoviy harakatni ifodalamagani hamda harakat ma'nosidagi valentlik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilmaganligi sababli grammatik valentlik tahliliga kiritilmadi.

Xulosa qilib aytganda, Britaniya Milliy Korpusi (BNC) va Liepzig korpusi materiallari asosida olib borilgan annotatsiya natijalari ingliz tilidagi *to come* va o'zbek tilidagi *kel-* fe'llarining grammatik valentlik xususiyatlari o'rtasida sezilarli darajadagi strukturaviy o'xshashlik mavjudligini ko'rsatdi. Har ikki fe'l ham real nutq materiallarida faqat bitta majburiy argument — harakat bajaruvchini bildiruvchi ega (Agent/Mover) bilan ifodalanadi. Korpus tahlilida ushbu fe'llarning

to'ldiruvchi bilan kelgan holatlari aniqlanmadi, bu esa ularning monovalent fe'llar ekanini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek fe'llarning sintaktik tahlil jarayonida tillarga xos farqlar ham kuzatildi. O'zbek tilida *kel-* fe'li bilan bog'liq argument (majburiy elementlar) va adyunktlar (ixtiyoriy elementlar) asosan kelishik qo'shimchalari orqali ifodalanadi (uyga kelmoq, ertalabdan kelmoq), ingliz tilida esa *to come* fe'lining ifodalanishida predloglar va qat'iy so'z tartibi muhim rol o'ynaydi (come to London, come early). Shunga qaramay, ushbu farqlar fe'llarning valentlik darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi, balki faqat ularning yuzaki sintaktik xususiyatlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Korpus materiallari har ikki tilda ham *kel-* va *to come* fe'llarining frazeologik va metaforik qo'llanishlari mavjudligini ko'rsatdi (yordamga kelmoq, fikrga kelmoq; come to terms with, come to conclusions). Ushbu qo'llanishlar harakat ma'nosini ifodalamagani sababli grammatik valentlik tahliliga kiritilmadi.

Grammatik valentlik tushunchasi gapning grammatik jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, *Men kitobni o'qiyapman* (bivalent fe'l + 2 argument), *U do'stiga sovg'a berdi* (trivalent fe'l + 3 argument) gaplari grammatik valentlik nuqtayi nazaridan to'g'ri qurilgan konstruksiyalar hisoblanadi. Grammatik valentlik tushunchasi gap ma'nosini aniq va tushunarli qilishda muhim rol o'ynaydi: *U berdi* (kimga? nimani?) gapida kimga nimani bergani noaniq bo'lib qolgan, *U bolaga kitobni berdi* gapida bo'lsa barcha tematik rollar aniqlanganligi tufayli gap grammatik jihatdan tug'al hisoblanadi [3]; [7].

Xullas, grammatik valentlik tushunchasi gapning struktural asosini yaratadi, semantik aniqligini ta'minlaydi, grammatik to'g'riligini belgilaydi, pragmatik imkoniyatlarini ochib beradi.

Fe'l	Aktantlar	Gap namunasi	Izoh
uxlamoq	1 (Agent)	Bola uxlaydi	Monovalent

o'qimoq	2 (Agent+Theme)	Talaba kitob o'qiydi	Bivalent
bermoq	3 (Agent+Theme+Recipient)	Ota bolaga kitob berdi	Trivalent

Ushbu jadvalda grammatik valentlik nazariyasining asosiy g'oyasi, ya'ni fe'lining aktantlar bilan kombinatorial imkoniyati ko'rsatilgan bo'lib, asosan uch xil valentlik turi (monovalent, bivalent va trivalent) tanlangan bo'lib, ular Tesniere tomonidan ilgari surilgan valentlik klassifikatsiyasining tayanch nuqtalarini tashkil etadi.

Jadvalning birinchi ustunida fe'llar keltirilgan bo'lib, ular semantik va sintaktik jihatdan turli valentlik darajalarini namoyon etadi. Masalan, *uxlamoq* fe'li faqat bitta majburiy aktant — harakat bajaruvchini (agent) talab qiladi. Bu fe'lining semantik tabiati ichki holatni ifodalashi bilan izohlanadi, ya'ni harakat boshqa obyektga yo'naltirilmagan. Shuning uchun *Bola uxlaydi* kabi gaplarda ega yetarli bo'lib, qo'shimcha to'ldiruvchi talab qilinmaydi. Bu holat monovalent fe'llarning tipik belgisi hisoblanadi.

Ikkinchi misolda keltirilgan *o'qimoq* fe'li esa bivalent fe'l sifatida tavsiflanadi. Ushbu fe'lining semantik strukturasida harakat bajaruvchi (agent) bilan bir qatorda harakatning obyekti (theme/patient) ham majburiy hisoblanadi. *Talaba kitob o'qiydi* gapida fe'lining valentlik imkoniyati to'liq ro'yobga chiqadi, chunki fe'l tomonidan ochilgan ikkala pozitsiya ega va vositasiz to'ldiruvchi real birliklar bilan to'ldirilgan. Agar obyekt tushib qolsa (*Talaba o'qiydi*), gap grammatik jihatdan mumkin bo'lsa-da, semantik jihatdan noaniqlashadi, bu esa valentlikning to'liq amalga oshmaganini ko'rsatadi.

Uchinchi misolda *bermoq* fe'li trivalent ya'ni uch valentli fe'l sifatida berilgan bo'lib, bu fe'l uchta majburiy aktantni talab qiladi: harakat bajaruvchisi (agent), uzatilayotgan narsa (theme) va qabul qiluvchi (recipient). *Ota bolaga kitob berdi* gapida ushbu uchala semantik rol sintaktik jihatdan mos ravishda ifodalangan. L.Tesniere ta'kidlaganidek, aynan shunday fe'llar gapning “dramatik yadrosi” ni

tashkil etadi, chunki ularda ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar eng to'liq va murakkab shaklda namoyon bo'ladi.

Jadvalning oxirgi ustunida berilgan izohlar valentlik turini aniqlashda faqat sintaktik belgilar emas, balki fe'lining leksik-semantik xususiyatlari ham asosiy mezon bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu esa grammatik valentlikning faqat formal emas, balki mazmuniy kategoriya ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Zamonaviy tilshunoslarni nuqtayi nazaridan valentlik – bu boshqa so'z turkumining o'z atrofida ochiq pozitsiyalarni yaratish qobiliyati bo'lib, ular majburiy yoki ixtiyoriy aktantlar bilan to'ldirilishi mumkin. Valentlik bu ma'noda fe'l tomonidan boshqariladigan ishtirokchilar soni, ya'ni “fe'lining ega va to'ldiruvchi bilan potensial birikish qobiliyati” sifatida tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov G. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 300- 320.
2. Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2002. – B. 280.
3. Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 400.
4. Allerton D.J. Valency and the English Verb. – London: Academic Press, 1982. – P. 200.
5. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. – London: Longman, 1999. – P. 1204.
6. British National Corpus (BNC). Available at: <https://www.english-corpora.org/bnc/>
7. Goldberg A.E. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. – Chicago: University of Chicago Press, 1995. –P. 270- 271.
8. Leipzig Corpora Collection. Available at: <https://corpora.uni-leipzig.de>



9. Levin B. English Verb Classes and Alternations: A Preliminary Investigation. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – P. 340- 348.
10. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. – Paris: Klincksieck, 1959. – P. 238-250.